



DUNYODAGI ILK FAYLASUF AYOL

Zarpullayeva Mohira Zarpulla qizi
Jo'rayeva Farog'at Xurram qizi
Mustafoqulova Sohiba Alibekovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalar
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7655525>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil
Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil
Nashr qilindi: 20-fevral 2023 yil

KEY WORDS

Gipatiya, Aliksandriya, falsafa,
fan, ilk asr, din

ABSTRACT

Olam yaralibdiki, u bilan birgalikda ilm-fan ham asta sekin rivojlanib bordi. Dunyoning yaralishi, samoviy jismlar, oy, yulduz, yer yuzi, umuman borliq, insoniyat ko'z o'ngida chuqur qiziqishlarni uyg'otdi. Shunday qilib avval falsafa, so'ng uning asnosida boshqa fanlar yuzaga kelib, ilm-fan yanada yuksalib boraverdi. Bu qiziqishlar g'arb-u sharqni oyoqqa turg'azdi va bir-biridan shijoatli, kuchli faylasuflarning shakllanishiga asosiy sabab bo'ldi. Uzoq tarix manbalaridan ham ma'lumki, olamda endigina ilm-fan uyg'onish davrida o'ziga xos dong taratgan olim ayollar nomi deyarli uchramaydi.

Xo'sh nima uchun fan taraqqiyoti birinchi ayollardan boshlanmagan? Bunga bir necha masalalar sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Bulardan biri mamlakatning notinchligi, jamiyatda hali qonun-qoidalar adolatli tarzda tuzilmaganligi, ayol va erkaklarning tabaqalarga ajratilganligi olim ayollar yetishib chiqishiga to'siq bo'lib kelgan bo'lishi mumkin. Ammo ushbu to'siqlarga qaramay Yevropada ilk faylasuf, matematik, fizik, astranom ayol yetishib chiqdi. U Aliksandriyalik Gipatiya edi.

1. Gipatiya "mil.av 335-405-yillarda yashab o'tgan. U Iskandariyalik matematik Teonning qizi. Dunyodagi birinchi ayol astranom, faylasuf va matematikdir. U o'z davrida juda mashhur bo'lgan va zamondoshlarining cheksiz hurmatiga sazovor bo'lgan. Gipatiya o'z davrining mashhur eng yaxshi olim ayollaridan edi. Onasi uni dunyoga keltirish chog'ida olamdan o'tgan. Otasi qizini o'zi tarbiyalab, olim ayol bo'lishiga sababchi bo'lgan. Gipatiyaning otasi Teon ham matematik bo'lgan va astranomiyaga tegishli masalalar yuzasidan yangi matematik yechish usullarini ishlab chiqqan. Qizi otasining ba'zi hisob-kitoblarini mukammallashtirib, ba'zilariga tuzatishlar kiritgan."

Gipatiyaning ilmga bo'lgan qiziqishi bolaligidan kuchli bo'lgan. Shu bilan birga u ajoyib go'zal husnga ega bo'lgan. U jismoniy mashqlar bilan ham shug'ullanib turgan. Qizining bu darajada yuksaklikka erishganligi otasi Teonning qanchalar katta bilim-salohiyatga ega bo'lganligi va o'ta ma'naviyatli shaxs bo'lganidan dalolat beradi.

Gipatiyaning ayniqsa matematikaga bo'lgan qiziqishi juda katta bo'lgan. U o'z ish faoliyatini otasi bilan birgalikda olib borgan va u Aliksandriya maktabida dars bergan. Uning ma'ruzalarini tinglash uchun dunyoning juda ko'p joylaridan talabalar kelib turishgan.

"Gipatiya asosan astranomik jadvalni hisoblash bilan shug'ullangan hamda Ptolomeyning

"Almagest", Apolloniyning "konus kesimlari", hamda Diofantning "Arifmetika" asarlariga sharh yozgan."

2. "Umuman antik davrda ayrim istisnolardan tashqari (masalan, Epikur maktabi) xotin-qizlar falsafiy va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Ammo tugab borayotgan antik davrdagi ilm-fan markazi Aleksandriyada buyuk olim ayol Gipatiya (Hupatia) faoliyat ko'rsatgan. U platonik faylasuf edi, shuningdek, matematika, Fizika, fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lib, o'zining olimligi va intellektual iqtidori bilan shuhrat qozondi. (Ba'zi manbalarda) 370-415-yillarda yashadi va kutubxonaga ketayotgan paytda o'ldirildi." Uning o'limi sababchilari xiristianlar deb ko'rsatilgan.

"Xiristianlik avj olgan bir paytda, uning budparastlikka sodiqligi uning yuksak nasroniylar qo'lida o'lishining boshlanishi edi. Uning o'ldirilishi Xiristianlarning budparastlikka qarshi qo'zg'olonida u 45 yoshda bo'lgan. Uning o'limi katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki ilm-fan va falsafa olamida o'zining jabhasi bilan ajralib turadigan ayolni o'ldirish nasroniylar uchun sharmandali jinoyat edi. Bilishimizcha, dinlar tarixda ko'plab ziyolilarning o'limiga sabab bo'lgan. Afsuski Gipatiyaning ishlari himoyalanganmagan".

Gipatiyaning ilmga bo'lgan qiziqishi ko'proq matematika sohasida bo'lganligi, bor umrini ilm izlashga va uni tarannum etishga sarflaganligi ham manbalarda qayd etilgan. Gipatiyaning jasoratligi, shijoatkorligi, izlanuvchanligi hamda tarixda ilk faylasuf ayol darajasiga erishganligi sababli u haqda hatto film ham yaratilgan. Ammo Gipatiyaning ilmiy izlanishlari haqida tarix darsliklarida ham, falsafa darsliklarida ham batafsil va keng ma'lumotlar uchramaydi. Maktab darsliklarida esa umuman tilga olinmagan. Bunga sabab balki Gipatiyaning bundan ancha yil avval, ilk asrlarda yashab o'tganligi va u yozgan manbalarning ko'pi o'zining o'limi bilan birgalikda yo'q qilinganidir. Gipatiya nafaqat dunyodagi birinchi faylasuf ayol, balki butun dunyo ayollarini ilm izlashga, jasoratlikka, donishmandlikka chorlagan faylasufdir. Uning ilmiy izlanishlari bundan juda ilgari zamonlarda olib borilgan bo'lsada, o'sha vaqtdagi chuqur mehnatlar samarasi bugungi kundagi ko'plab fanlarning, jumladan, astranomiya, matematika, fizika, kimyo va boshqa ko'plab fanlarning mukammal rivojlanib shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgani aniq. O'z qiziqishlari ustida hech narsadan hayiqmay tinimsiz izlangan Gipatiya, ayni paytda, balki undan keyin yetishib chiqqan olim ayollar yo'l boshchisi, ziyo nurini taratgan shaxs sifatida, balki mardlik, jasurlik, fidoiylilik timsoli deb ham tilga olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daryo.uz
2. "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2002
3. Google. Xom/amp/s/www.